

50. 0 bilan tugagan sonlarni bo'lish



Yondosh mavzu:
buxgalter va kassirlar.

Bo'linuvchi, bo'luvchi, to'liqsiz
bo'linma, qoldiq.



1. Hisoblang. Javoblarni kamayish tartibida yozib chiqing.
Bu darsda qaysi kasb haqida so'z boryapti?

A $6 \cdot 7$

E $5 \cdot 5$

T $6 \cdot 6$

B $8 \cdot 9$

L $4 \cdot 10$

U $7 \cdot 9$

G $8 \cdot 6$

R $3 \cdot 4$

X $11 \cdot 5$



2. Yaxlit sonlarni bo'lish qoidasini eslang. Hisoblab, javoblarni o'sish tartibida joylashtiring.

A	25 yuzl. : 5	K	18 yuzl. : 9	C	72 ming. : 8
I	12 mln.	R	54 mln. : 6	C	42 ming. : 7




3. Burchakli bo'lishni ko'rib chiqing. Qanday xulosa qila olasiz?

I usul	II usul
$\begin{array}{r} 1250005 \\ - 1025000 \\ \hline 250005 \\ - 250000 \\ \hline 50005 \\ - 50000 \\ \hline 5005 \\ - 5000 \\ \hline 505 \\ - 500 \\ \hline 50 \\ - 50 \\ \hline 0 \end{array}$	$\begin{array}{r} 125000 = 125 \text{ ming.} \\ - 125 \text{ ming.} \cdot 5 \\ \hline 125000 : 5 = 25000 \end{array}$

50. 0 bilan tugagan sonlarni bo'lish



Bo'linuvchi 0 bilan tugagan bo'lsa, bu sonning xonalarida 0 dan boshqa raqamlar qolguncha, bo'linmaning qoldig'i 0 ga teng bo'lmaguncha bo'lishda davom etaveramiz. Shundan keyin qolgan 0 larni bo'linmaga o'tkazib qo'yamiz.



4. Bo'lishni qulay usul bilan bajaring.

$$456\,000 : 6$$

$$543\,000\,000 : 3$$

$$17\,800 : 2$$



5. Kompaniya eng yaxshi ishlagan 6 nafar ishchiga 8 220 000 so'm ajratdi. Agar bu mukofot ishchilar o'rtasida teng bo'linsa, har bir ishchi necha so'm olgan?



6. Besh kishilik qurilish brigadasi ishlagan har bir soati uchun 178 000 so'm oladi. Ish kuni 8 soat bo'lsa, har bir quruvchi kun oxirida necha so'm oladi?



7. Anora tasma sotib olishga 128 000 so'm sarfladi. U ana shu tasmalardan 8 ta bog'ich, 12 ta xatcho'p tayyorladi. Anora har bir bog'ichni 20 000 so'mdan, xatcho'pni esa 13 000 so'mdan sotdi. U jami qancha pul topdi?



8. Solishtiring.

$$7 \cdot 100 \square 8 \cdot 10 \cdot 10$$

$$9 \cdot 10 + 3 \square 7 \cdot 10 + 9$$

$$20 \cdot 6 \square 7 \cdot 2 \cdot 5$$

$$6 \cdot 10 + 4 \square 8 + 4 \cdot 10$$

$$8 \cdot 4 \cdot 5 \square 2 \cdot 9 \cdot 5$$

$$(9 + 1) \cdot 10 \square 8 \cdot 10 + 2 \cdot 10$$

50. 0 bilan tugagan sonlarni bo'lish



9. Sonlarni xonalik sonlar yig'indisi shaklida yozing.

Namuna:

$$40\,308 = 40\,000 + 300 + 8.$$

$$30\,600$$

$$870\,320$$

$$100\,500$$

$$720\,526$$

$$3\,000\,459$$

$$9\,000\,009$$



10. Tenglamalarni yeching. Ularning ildizlarini o'qing.

$$m - 40 - 700 = 3\,000$$

$$b - 20 - 600 - 8\,000 = 300\,000$$



11. Buxgalteriya daftarining bir necha varag'i yo'qoldi. 68-betdan keyingi bir necha varaq yo'q, keyingi varaqlar 93-betdan boshlangan. Necha varaq yo'qolgan?



12. Ikki tanga joyini shunday o'zgartiringki, rasmdagi kubok pastga qarab qolsin.



13. Bo'lishni burchakli usulda bajaring:

$$87\,000 : 3$$

$$12\,900 : 6$$

$$328\,000 : 4$$

$$1\,550 : 5$$

$$648\,000\,000 : 8$$

$$1\,680\,000 : 7$$



14. Firma yanvar oyida 135 mln so'm, fevralda yanvardagidan 5 baravar kam, mart oyida esa fevraldagidan 3 baravar ko'p daromad oldi. Firma bu kvartalda jami necha so'm daromad olgan?